

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'RTA ASRLARDAN YANGI DAVRGA AXLOQ VA HUQUQ MUNOSABATINING TRANSFORMATSIYASI

Saitmurodov Jobirjon Boymurod o'g'li

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, tadqiqotchi.

e-mail: j_saitmurodov@renessans-edu.uz ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-1066-0973>

Annotatsiya.

Maqolada o'rta asrlardan yangi davrga o'tish jarayonida axloq va huquq o'rtasidagi munosabatning qanday o'zgargani qiyosiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor o'rta asrlardagi diniy-axloqiy yaxlitlikdan yangi davrda axloqiy va huquqiy tartibga solish vazifalarining nisbatan farqlanishiga, shuningdek, bu o'zgarishda adolat, burch, erkinlik va tabiiy huquq g'oyalarining o'rniga qaratiladi.

Kalit so'zlar: axloq-huquq munosabati, transformatsiya, o'rta asrlar, yangi davr, adolat, tabiiy huquq, burch, erkinlik, normativ tartib.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ МОРАЛИ И ПРАВА ОТ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ К НОВОМУ ВРЕМЕНИ

Сайтмуродов Жобиржон Боймурод угли

Институт социально-духовных исследований при Республиканском центре духовности и просветительства, исследователь.

Аннотация.

В статье проводится сравнительно-философский анализ трансформации взаимоотношений морали и права в процессе перехода от Средневековья к Новому времени. Основное внимание уделяется переходу от характерного для Средневековья религиозно-нравственного единства к относительному разграничению функций морального и правового регулирования в Новое время, а также роли идей справедливости, долга, свободы и естественного права в данной трансформации.

Ключевые слова: взаимоотношение морали и права, трансформация, Средневековье, Новое время, справедливость, естественное право, долг, свобода, нормативный порядок.

THE TRANSFORMATION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN MORALITY AND LAW FROM THE MIDDLE AGES TO THE MODERN ERA

Saitmurodov Jobirjon Boymurod o'g'li

Institute for Social and Spiritual Research under the Republican Center for Spirituality and Enlightenment, Researcher.

Abstract.

The article provides a comparative philosophical analysis of the transformation of the relationship between morality and law during the transition from the Middle Ages to the modern era. Particular attention is paid to the shift from the religious and moral unity characteristic of the Middle Ages to the relative differentiation of the functions of moral and legal regulation in the modern era, as well as to the role of the ideas of justice, duty, freedom, and natural law in this transformation.

Keywords: relationship between morality and law, transformation, Middle Ages, modern era, justice, natural law, duty, freedom, normative order.

Kirish. O'rta asrlarda axloq va huquq bugungi kundagi kabi chegaralari aniq belgilangan ikki mustaqil normativ tizim sifatida tushunilmagan. Insonning xulqi, jamiyat oldidagi burchi, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari, shuningdek, o'rnatilgan tartibga munosabati ko'pincha diniy e'tiqod va ijtimoiy majburiyatlar bilan bir butun holda tushuntirilgan. Shu bois bu davrdagi axloq-huquq munosabatini zamonaviy tushunchalar asosida baholashdan ko'ra, ularning tarixiy mazmun-mohiyatini hisobga olgan holda tahlil qilish to'g'riroqdir.

G'arbiy Yevropa o'rta asr tafakkurida axloqiy me'yorlarning asoslanishi xristian dunyoqarashi va ilohiy qonun bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. A. Guseynov bu holatni izohlar ekan, "o'rta asr teologik etikasi Bibliyadagi axloqiy kanonni anglash va ratsional asoslash sifatida namoyon bo'ladi" [1; 23-b.], deb qayd etadi. Bunday qarashda axloq shaxsning ichki fazilatlarini bilangina cheklanmaydi; u oila, mulk, davlat va adolat kabi ijtimoiy munosabatlarning me'yoriy asoslari bilan ham bog'lanadi. Natijada diniy talab, axloqiy burch va ijtimoiy tartib o'zaro tutashgan holda namoyon bo'ladi.

Sharq, ayniqsa, islom falsafiy-huquqiy an'anasida ham shunga yaqin normativ yaxlitlik kuzatiladi. Shariat buning yaqqol misolidir. G. Kerimovning ta'kidlashicha, "Shariatda xo'jalik hayotini tartibga soluvchi qonunlar, axloq me'yorlari, musulmon marosimlari, bayramlar hamda mo'minlarning xulqi va jamoa hayoti tartibini belgilovchi boshqa

qoidalar yagona tizimga birlashtirilgan" [2; 3-b.]. Bu yondashuvda huquq faqat tashqi majburiyat yoki davlat tomonidan qo'llaniladigan sanksiya bilan belgilanmaydi. Diniy burch, axloqiy xulq va kundalik ijtimoiy munosabatlar ham umumiy me'yoriy tartibning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shunday qilib, Sharq va G'arb o'rta asr an'analari o'z diniy-falsafiy manbalari bilan farqlansa-da, ikkalasida ham axloqiy talab va ijtimoiy-huquqiy tartib o'rtasida qat'iy uzilish mavjud emas edi.

Yangi davr falsafasida bu munosabatni asoslash yo'li asta-sekin o'zgara boshladi. Inson aqli, erkinligi, shaxsiy mas'uliyati, tabiiy huquq va umumiy manfaat masalalari avvalgidan ko'ra muhimroq o'rin egalladi. A. Guseynov mazkur tarixiy yo'nalishni "axloqni cherkov-teologik qaramlikdan chiqarib, uni aql homiyiligiga olish" [1; 25-b.] tarzida ifodalaydi. Bu holat diniy axloqning birdaniga yo'qolganini anglatmaydi. Asosiy o'zgarish axloqiy me'yorlarni tushuntirishda insonning o'zi, uning aqli, erkin tanlovi va mas'uliyati tobora muhim nazariy asosga aylanganida ko'rinadi. Buni Yangi davrda axloqning manbai va asoslanishiga doir turli yondashuvlarning shakllanishida ham ko'rish mumkin.

Huquqni talqin qilishda ham alohida o'zgarishlar yuz berdi. Qonun bilan jamiyatning axloqiy va madaniy hayotida tarixan shakllangan urf-odatlar bir xil vosita sifatida qaralmay boshladi. Monteskiye bu farqni aniq ifodalab, "qonunlar qonun chiqaruvchining alohida va aniq o'rnatmalari, odatlar va urf-odatlar esa millatning umumiy institutlaridir" [3; 213-b.], deb yozadi. Bu fikr huquqiy norma bilan axloqiy-ijtimoiy odatlarning ta'sir mexanizmlari bir xil emasligini ko'rsatadi. Keyinchalik Kantning burch va axloqiy avtonomiya haqidagi ta'limoti, Gegelning huquq, axloq va axloqiylik o'rtasidagi munosabatga doir qarashlari bu farqlanishni yanada chuqurlashtirdi.

Shu bois o'rta asrlardan yangi davrga o'tish jarayonini axloq va huquqning bir-biridan birdaniga ajralishi sifatida talqin qilish biryoqlama bo'ladi. Bu davrlar oralig'ida, avvalo, ularni asoslash usullari, inson xulqiga ta'sir ko'rsatish vositalari va ijtimoiy vazifalarida muayyan farqlanish yuz berdi. Huquqning tashqi, rasmiy va institutsional jihatlari aniqroq shakllana borgan bo'lsa, axloqda ichki burch, erkin tanlov va shaxsiy mas'uliyat masalalari kuchliroq namoyon bo'la boshladi. Shu bilan birga, adolat va umumiy manfaat ularni bog'lab turuvchi mezonlar sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

Tadqiqotning maqsadi o'rta asrlardan yangi davrga o'tish jarayonida axloq va huquq munosabatining nazariy asoslari hamda ijtimoiy tartibga solishdagi funksiyalarida yuz bergan o'zgarishlarni qiyosiy-falsafiy jihatdan aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun o'rta asr Sharq va G'arb tafakkurida axloq va huquqning qanday mazmunda talqin qilinganini ochib berish; yangi davrda aql, erkinlik, burch, tabiiy huquq va ijtimoiy tartib g'oyalarining mazkur munosabatga ta'sirini ko'rsatish; ikki tarixiy bosqich o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni qiyoslash hamda axloq-huquq munosabatidagi transformatsiyaning asosiy yo'nalishlarini umumlashtirish vazifalari belgilandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ushbu maqolani yozishda o'rta asr Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri hamda yangi davr axloqiy-huquqiy qarashlariga oid asarlardan foydalanildi. Sharqdagi normativ qarashlarni yoritishda G. Kerimovning islom shariatiga bag'ishlangan tadqiqoti muhim o'rin tutadi. Unda shariat huquqiy qoidalar bilangina cheklanmay, diniy, axloqiy va ijtimoiy talablarni ham qamrab oluvchi yaxlit me'yoriy tizim sifatida talqin qilinadi [2; 3-b.]. Forobiy ta'limotini o'rganishda S. Chelikkolning "Farobiyda axloq va axloq tarbiyasi" asaridan foydalanildi. S. Chelikkol Forobiyda axloq ilmi faqat shaxs kamolotiga emas, balki jamiyatni takomillashtirishga ham yo'naltirilganini ko'rsatadi. Shu sababli uning qarashlarida axloq, siyosat va qonun o'rtasidagi bog'liqlik alohida ahamiyat kasb etadi [4; 30-b.]. Odil boshqaruv va axloqiy mas'uliyat masalalarini yoritishda esa Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asariga murojaat qilindi.

G'arb o'rta asr tafakkurini ochib berishda A. Guseynovning axloq tarixi bo'yicha tadqiqotlari, A. Guseynov va G. Irrlitzning "Etikaning qisqacha tarixi" asari hamda V. Sokolovning "O'rta asrlar falsafasi" kitobi asosiy nazariy manbalar sifatida tanlandi. Ushbu adabiyotlarda Foma Akvinskiy ta'limotidagi aql, tabiiy qonun, ilohiy qonun va insoniy qonun o'rtasidagi munosabat keng yoritilgan. Xususan, qonun inson xatti-harakatini muayyan maqsadga yo'naltiruvchi me'yor sifatida tushuntiriladi hamda abadiy, tabiiy, insoniy va ilohiy qonunlar o'zaro farqlanadi [6; 258-b.]. Bu qarashlar o'rta asr G'arb falsafasida axloqiy burch bilan huquqiy tartibning diniy va ratsional asoslarini qiyosiy ko'rib chiqish imkonini beradi.

O'rta asrlardan yangi davrga o'tish jarayonida normativ tartibning tabaqalanishini yoritishda J. Lokkning "Inson aqli to'g'risida tajriba" asarida qonunlarni ilohiy qonun, fuqarolik qonuni va jamoatchilik fikri qonuniga ajratishi [9; 406-407-b.] hamda mazkur tasnifga R. Апре́ссыан tomonidan berilgan sharh [7; 7-b.] asos qilib olindi. Ushbu yondashuv diniy buyruq, davlat tomonidan belgilangan qoida va jamoatchilik bahosi inson xulqiga ta'sir qiluvchi alohida me'yoriy manbalar sifatida namoyon bo'lganini, ularning amal qilish vositalari ham bir-biridan farqlanganini tushuntirish imkonini beradi.

Yangi davrga oid tahlilda Monteskiyening "Qonunlar ruhi", Immanuel Kantning axloq falsafasiga bag'ishlangan asarlari, F. Gegelning "Huquq falsafasi" hamda Jon Styuart Millning "Utilitarianizm" asarlaridan foydalanildi. Monteskiye qonun va urf-odatlarining jamiyat hayotidagi ta'sirini bir xil deb hisoblamaydi va ularning tartibga solish imkoniyatlarini farqlaydi [3; 213-b.]. Kantning axloqiy falsafasida burch va axloqiy qonunga hurmat inson xatti-harakatining muhim mezoni sifatida asoslanadi [9; 235-b.]. Shuningdek, mutafakkir inson irodasini o'ziga umumiy qonun bera oladigan iroda sifatida talqin qilib, axloqiy avtonomiya g'oyasini ilgari suradi [9; 258-b.]. Gegel huquq, axloq va axloqiylikni o'zaro bog'liq, biroq turli bosqichlarda namoyon bo'ladigan hodisalar sifatida tizimlashtiradi. Uning qarashlarini sharhlashda Allan Vudning "Gegelning axloqiy tafakkuri" asari ham qo'shimcha manba sifatida jalb qilindi. A. Vud Gegel ta'limotida axloqiylikning shaxsiy niyat bilangina cheklanmay, ijtimoiy munosabatlar va institutlar orqali ro'yobga chiqishiga e'tibor qaratadi.

Tadqiqotda tarixiy-falsafiy, qiyosiy, gerменевтік va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi. Tarixiy-falsafiy

yondashuv axloq va huquq munosabatining turli davrlarda qanday nazariy asoslarda tushuntirilganini aniqlashga xizmat qiladi. Qiyosiy usul orqali o'rta asr Sharq va G'arb tafakkuridagi umumiy hamda farqli jihatlar, shuningdek, ularning yangi davr qarashlaridan ajralib turuvchi xususiyatlari ochib beriladi. Germenevtik yondashuv shariat, saodat, fazilat, tabiiy qonun, burch, erkinlik va axloqiylik kabi tushunchalarni ular shakllangan tarixiy-madaniy muhitdan ajratmagan holda talqin qilish imkonini beradi. Konseptual tahlil esa adolat, burch, erkinlik, umumiy manfaat va ijtimoiy tartib tushunchalari orqali axloq va huquq o'rtasidagi munosabatning davrlar kesimida qanday o'zgarganini aniqlashga yo'naltirildi.

Muhokama

O'rta asrlardan yangi davrga o'tishda axloq va huquq munosabatida yuz bergan o'zgarishlarni ularning avval birlashgan, keyinchalik esa butunlay ajralgan tizimlarga aylangani bilan izohlash masalani soddalashtirib yuboradi. O'rta asr tafakkurining o'zida diniy qoida, axloqiy talab, siyosiy boshqaruv va huquqiy majburiyat muayyan vazifalarni bajargan. Ularni birlashtirib turgan jihat esa ko'proq ilohiy tartib, adolat, fazilat va saodat haqidagi umumiy tasavvurlarda namoyon bo'lgan. Yangi davrga kelib, asosiy o'zgarish mazkur me'yorlarning qaysi manbaga tayanishi, inson xulqiga qanday ta'sir qilishi va jamiyatdagi vazifasi nimadan iborat ekanini alohida tushuntirishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishida ko'rinadi.

Sharq o'rta asr tafakkurida axloqiy va huquqiy tartibning o'zaro aloqasini Forobiy qarashlari orqali kuzatish mumkin. Uning ta'limotida qonun faqat nomaqbul xatti-harakatni cheklash yoki jazo belgilash vositasi bo'lib qolmay, inson va jamiyatni saodatga yetaklashga xizmat qiluvchi me'yoriy vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Forobiyda davlat boshlig'ining muhim vazifalaridan biri xalqning saodatga erishishiga xizmat qiladigan qonunlarni belgilash va ularning amal qilishini ta'minlashdir. Bunday qonunlar kishilar o'rtasidagi aloqalarni tartibga solib, shahar hayotining yaxlitligini mustahkamlaydi [4; 152-b.]. Shu jihatdan qonun va axloqiy maqsad bir-biridan ajratilmaydi: me'yorning qadri uning faqat majburiy kuchga egaligida emas, balki insonni fazilatli hayotga yo'naltira olishida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy qarashlarida ham boshqaruvning mazmuni adolat mezonini orqali baholanadi. "Mahbub ul-qulub"da odil hukmdor "mamlakat uchun tinchlik va farovonlik sababchisidir" [5; 25-b.], deya tasvirlanadi. Asarning boshqa o'rnida esa "mamlakatning obod va xarobaligi – shohning adolati va zulmiga bog'liq" [5; 99-b.]ligi aytiladi. Bu yerda huquq alohida nazariy tizim sifatida ishlab chiqilmagan bo'lsa ham, siyosiy boshqaruvning natijasi axloqiy mezon asosida baholanadi. Demak, Navoiy tafakkurida adolat nafaqat shaxsiy fazilat, balki hokimiyat faoliyati va jamiyatdagi tartibning sifatini belgilovchi mezon hamdir.

G'arb o'rta asr tafakkurida ushbu masala Foma Akvinskiy ta'limotida nisbatan tizimli ko'rinish oladi. U qonunni inson xatti-harakatiga yo'nalish beruvchi qoida va o'lchov sifatida talqin qiladi hamda abadiy, tabiiy, insoniy va ilohiy qonunlarni farqlaydi [6; 258-b.]. Bunday tasnif O'rta asrlardagi normativ yaxlitlik barcha me'yorlarning bir xil mazmunga ega bo'lganini anglatmasligini ko'rsatadi. Inson tomonidan yaratiladigan qonun alohida mavjud bo'lsa-da, uning mazmuni tabiiy va ilohiy qonun bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Shuning uchun G'arb o'rta asr tafakkurini axloq va huquq mutlaqo farqlanmagan davr sifatida emas, balki turli me'yorlar umumiy diniy-metafizik asos doirasida o'zaro bog'langan normativ tartib sifatida talqin qilish asosliroqdir.

O'rta asrlarga xos diniy-me'yoriy qarashlardan yangi davrga xos bo'lgan nisbatan farqlangan normativ tizimlarga o'tish jarayoni Jon Lokk ta'limotida yaqqol namoyon bo'ladi. U inson xatti-harakatini baholashga xizmat qiladigan mezonlarni uch guruhga ajratadi: ilohiy qonun, fuqarolik qonuni va jamoatchilik fikri yoki obro' qonuni [7; 406–407-b.]. Ushbu tasnifni tahlil qilgan R. Apressyan ularning manbasi va amal qilish usuli bir xil emasligiga e'tibor qaratadi. Jumladan, ilohiy qonunning asosini Xudo, fuqarolik qonunining asosini davlat hokimiyati, jamoatchilik fikrining ta'sirini esa jamiyat tomonidan bildiriladigan ma'qullash yoki qoralash tashkil etadi [8; 7-b.]. Shu jihatdan Lokk qarashlarida axloqiy va huquqiy talablar o'rtasidagi bog'liqlik saqlangan bo'lsa-da, ularning qaysi manbaga tayanishi va inson xulqiga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqroq farqlana boshlaydi. Bu holat Lokk ta'limotini o'rta asrlardagi umumiy diniy-me'yoriy tartibdan yangi davrga xos funksional farqlanish tomon yuz bergan o'zgarishni tushuntiruvchi muhim nazariy bo'g'in sifatida baholash imkonini beradi.

Lokk qarashlarida ko'rina boshlagan normativ manbalar va ta'sir vositalarining farqlanishi XVIII asr falsafasida yanada aniqroq tus oldi. Monteskiye qonun, axloqiy odat va urf-odatni bir xil tartibga solish vositasi sifatida talqin qilmaydi. Uning yondashuviga ko'ra, qonun ko'proq fuqaroning tashqi xatti-harakatiga ta'sir etsa, axloqiy odatlar insonning kundalik xulqi va ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo'ladigan me'yorlarni shakllantirishga xizmat qiladi [3; 214-b.]. Shu bilan birga, u bu sohalar o'rtasida uzviy aloqa mavjudligini ham qayd etadi: qonun va urf-odat o'z tabiatiga ko'ra farqlansa-da, bir-biridan butunlay mustaqil emas [3; 217-b.]. Demak, Yangi davrdagi yangilik ularning aloqasi yo'qolganida emas, balki har birining tartibga solish imkoniyati va chegarasi alohida anglana boshlaganida namoyon bo'ladi.

Kant axloqiy me'yorning asosini insonning ichki irodasi va amaliy aqli bilan bog'lash orqali mazkur jarayonga boshqa yo'nalish beradi. U xatti-harakatning axloqiy qiymatini undan olinadigan natijaga emas, qonun haqidagi tasavvurning iroda uchun belgilovchi asos bo'lishiga bog'laydi [9; 235-b.]. Kant shu o'rinda shaxs o'z xatti-harakatining maksimasini umumiy qonun sifatida xohlash mumkin bo'lgan tarzda harakat qilishi lozimligini ta'kidlaydi [9; 235-b.]. Bu qarashda axloqiy majburiyatning mazmuni tashqi buyruqni bajarish bilangina belgilanmaydi; insonning oqilona va o'zini o'zi majbur eta oladigan subyekt sifatidagi mavqei muhimlashadi. Shu tariqa axloqiy asoslashda transsendent mezon bilan bir qatorda shaxsning amaliy aqli, erkinligi va avtonomiyasi markaziy ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Yangi davr axloqiy tafakkuri, tabiiyki, Kantning burchga asoslangan yondashuvi bilangina cheklanmaydi. J. S. Mill masalaga ijtimoiy foyda va adolat o'rtasidagi bog'liqlik nuqtayi nazaridan yondashadi. Mill teng munosabatda bo'lish talabini adolat bilan bog'laydi [11; 112-b.]. Adolatni esa ijtimoiy foydalilik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega

bo'lgan axloqiy talablar majmui sifatida talqin qiladi [11; 113-b.]. Millning muhim xulosalaridan yana biri shuki, amaldagi qonunning mavjudligi uning o'z-o'zidan adolatli ekanini anglatmaydi. Qonun adolatsiz bo'lishi mumkinligi sababli u adolatning mutlaq mezonni vazifasini bajara olmaydi [11; 80-b.]. Bu fikr qonuniylik bilan axloqiy asoslanganlik o'rtasidagi farqni aniqroq namoyon qiladi.

Gegel esa axloq va huquq o'rtasidagi farqlanishni ularning ijtimoiy hayotdagi birligini qayta asoslash orqali davom ettiradi. "Huquq falsafasi" asarida huquq, axloq va axloqiylik aynanlashtirilmaydi, biroq ular bir-biridan uzilgan hodisalar sifatida ham qaralmaydi. Gegel huquqni faqat tor ma'nodagi fuqarolik huquqi bilan cheklamay, uning rivojlanish doirasida axloq va axloqiylikni ham ko'rib chiqadi. Axloq shaxsning niyati, burchi va ichki erkinligi bilan bog'liq bo'lsa, axloqiylik oila, fuqarolik jamiyati va davlat kabi real ijtimoiy institutlar orqali namoyon bo'ladi [10; 51-b.]. Shu sababli Gegelda axloq va huquqning farqlanishi ularning uzilishiga emas, balki turli darajalarda o'zaro to'ldirilishiga olib keladi.

Bu yondashuv Gegelning davlat haqidagi ta'limotida yanada oydinlashadi. U "davlatni amalga oshgan axloqiy g'oya" sifatida tavsiflaydi [10; 194-b.]. Bu nuqtayi nazardan, axloq faqat shaxsning ichki vijdoni doirasida qolib ketmaydi, huquq esa oddiy tashqi majburlovga tenglashtirilmaydi. Oila, fuqarolik jamiyati va davlat shaxsiy manfaat, erkinlik hamda umumiy manfaat o'rtasidagi munosabatni muvofiqlashtiruvchi ijtimoiy shakllar sifatida namoyon bo'ladi. Demak, me'yoriy sohalarining farqlanishi ularning bir-biriga bo'lgan ehtiyojini kamaytirmaydi, aksincha, ushbu bog'liqlikning yangi shaklini yuzaga keltiradi.

Qiyosiy tahlildan ko'rinadiki, o'rta asrlardan yangi davrga axloq va huquq munosabatidagi o'zgarish uzluksiz va bir xil yo'nalishda kechmagan. O'rta asr tafakkurida axloqiy, diniy va huquqiy talablar ko'proq adolat, saodat, fazilat va ilohiy tartib kabi umumiy mezonlar bilan asoslangan. Yangi davrga kelib esa ularning manbai, ta'sir shakli va ijtimoiy vazifalari alohida nazariy masalaga aylandi. Natijada axloq burch, avtonomiya, erkin tanlov va shaxsiy mas'uliyat bilan, huquq esa rasmiy norma, tashqi tartib va institutlar bilan yanada aniqroq bog'lana boshladi. Shu bilan birga, bu jarayon axloq va huquqning ajralib ketishini emas, balki ularning o'zaro aloqasi yangi mazmun va yangi funksional nisbatda shakllanganini ko'rsatadi.

Natijalar

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, o'rta asrlardan yangi davrga o'tishda axloq va huquq o'rtasidagi munosabat oddiy alohidalashish jarayonidan ko'ra murakkabroq mazmunga ega bo'lgan. Tarixiy o'zgarish, avvalo, jamiyatdagi me'yoriy tartibning tarkibiy jihatdan murakkablashuvi bilan bog'liq bo'lib, vaqt o'tishi bilan axloqiy va huquqiy tartibga solishning vazifalari, ta'sir usullari va ularni asoslash mezonlari aniqroq ajralib borgan.

Tahlillarga ko'ra, bu o'zgarishlar bir necha yo'nalishda namoyon bo'lgan. Dastlab me'yorlarning asoslanish manbalarida muayyan siljish kuzatiladi. Diniy va metafizik mezonlar o'z ahamiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, yangi davr tafakkurida aql, erkinlik, inson manfaatlari va ijtimoiy institutlarga tayangan yondashuvlar kuchaya boshladi. Shu bilan birga, axloqiy va huquqiy ta'sirning amal qilish usullari ham aniqroq farqlana boshladi: axloq insonning o'z xatti-harakatini ichki mezonlar asosida baholashi bilan ko'proq bog'langan bo'lsa, huquq umumiy majburiy qoidalarni tashkiliy va institutsional vositalar orqali ta'minlash vazifasini kuchaytirdi.

Yana bir muhim natija insonning normativ munosabatlardagi o'rniga doir tasavvurlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Shaxs asta-sekin faqat mavjud tartib-qoidalarni bajaruvchi sifatida emas, balki o'z qarorini ongli ravishda qabul qiluvchi, tanlov qiluvchi va uning oqibatlari uchun mas'ul bo'lgan subyekti sifatida talqin qilina boshladi. Natijada burch, erkin tanlov va javobgarlik masalalari axloqiy baholashning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Huquqiy tartibni baholashda ham qonunning mavjudligi yoki uning majburiy kuchi bilangina cheklanilmay, adolat, erkinlik, tenglik, umumiy manfaat va ijtimoiy foyda kabi mezonlarga murojaat qilish kuchaydi.

Sharq va G'arb o'rta asr tafakkurini qiyoslash ular o'rtasida faqat umumiylik emas, muayyan nazariy farqlar ham mavjud bo'lganini ko'rsatdi. Sharq an'anasida inson kamoloti, saodat, adolatli boshqaruv va jamoa manfaatining o'zaro bog'liqligi ko'proq ko'zga tashlanadi. G'arb tafakkurida esa insoniy, tabiiy va ilohiy qonunlarning o'zaro nisbatini nazariy jihatdan belgilashga kuchliroq e'tibor qaratilgan. Shunga qaramay, ikkala an'anada ham inson tomonidan belgilangan qoida mutlaq va o'z-o'zicha yetarli mezon sifatida qabul qilinmagan; uning qiymati undan yuqori turuvchi axloqiy, diniy yoki tabiiy mezonlar bilan bog'langan.

Yangi davrga kelib, qonunning amalda mavjud bo'lishi bilan uning axloqiy jihatdan oqlangan bo'lishi o'rtasidagi farq yanada ravshanlashdi. Natijada qonuniylik va adolat, tashqi majburiyat va ichki burch, individual erkinlik va umumiy manfaat o'rtasidagi munosabat alohida falsafiy muammolar sifatida shakllandi. Bu holat axloq va huquqning vazifalari o'rtasidagi chegaralarni aniqlashtirgan bo'lsa-da, ularning o'zaro aloqasini bekor qilmadi. Aksincha, huquq axloqiy mezonlar orqali baholanishi, axloqiy talablar esa ijtimoiy institutlar va huquqiy tartib orqali mustahkamlanishi mumkinligi yanada yaqqol namoyon bo'ldi.

Shu asosda tadqiqotning asosiy natijasini quyidagicha ifodalash mumkin: o'rta asrlardan yangi davrga o'tishda axloq va huquqning bir-biridan mutlaq ajralishi emas, balki ularning normativ tartibdagi o'zni, asoslanish manbalari va ijtimoiy funksiyalarining qayta taqsimlanishi yuz bergan. Natijada ular nisbatan farqlangan tartibga solish shakllariga aylangan bo'lsa-da, adolat, erkinlik, mas'uliyat va umumiy manfaat singari mezonlar orqali o'zaro bog'liqligini saqlab qolgan.

Xulosa

O'rta asr va Yangi davr falsafiy merosini qiyosiy o'rganish axloq bilan huquq o'rtasidagi munosabat tarix davomida bir xil mazmunda qolmaganini ko'rsatadi. O'rta asrlarda inson xulqi va jamiyatdagi tartibni belgilovchi talablar diniy e'tiqod, axloqiy fazilat va boshqaruv tamoyillari bilan o'zaro bog'liq holda tushuntirilgan. Shu bois axloq va huquqning vazifalari mavjud bo'lgan bo'lsa-da, ularni bugungi ma'nodagi alohida normativ tizimlar sifatida ko'rish

mazkur davrning xususiyatini to'liq ifodalaymaydi.

Sharq mutafakkirlari qarashlarida insonning kamoloti bilan jamiyatning to'g'ri tashkil etilishi o'rtasidagi bog'liqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Forobiy uchun qonun va boshqaruv kishilarni fazilat hamda saodat sari yo'naltirishga xizmat qilsa, Navoiyda adolat jamiyat osoyishtaligi va mamlakat obodligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. G'arb o'rta asr falsafasida esa qonunning manbalari va darajalarini nazariy jihatdan tushuntirishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Foma Akvinskiyning tabiiy, insoniy va ilohiy qonun haqidagi qarashlari inson tomonidan belgilangan huquqiy qoidalar yuqoriroq axloqiy-me'yoriy mezonlardan uzib talqin qilinmaganini ko'rsatadi.

Yangi davr falsafasi bu munosabatni yangi tushunchalar orqali qayta ko'rib chiqdi. Aql, erkinlik, shaxsning mustaqil tanlovi va javobgarligi axloqiy fikrning muhim tayanchlariga aylandi. Shu bilan bir vaqtda, qonunning o'ziga xos vazifasi, uning urf-odat va axloqiy talabdan farqi ham aniqroq ko'rina boshladi. Montesquieu bu me'yorlarning ta'sir doirasini farqlashga e'tibor qaratgan bo'lsa, Kant axloqiy burchni oqilona va erkin iroda bilan bog'ladi. Mill qonuniy bo'lgan narsaning har doim ham adolatli bo'lavermasligini ko'rsatdi, Hegel esa shaxsiy axloqiylik bilan huquqiy va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi bog'liqlikni yangi nazariy darajada asoslashga harakat qildi.

Shu jihatdan Yangi davrga o'tishni huquqning axloqdan uzilishi deb baholash to'liq asosli emas. Asl o'zgarish ularning jamiyatdagi vazifalari va ta'sir ko'rsatish vositalarining yanada aniqroq belgilanishida namoyon bo'ldi. Huquqning rasmiy, majburiy va institutsional jihatlari kuchaygan sari axloqning shaxsiy burch, ongli tanlov, vijdon va mas'uliyat bilan bog'liq tomonlari ham alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Biroq adolat, erkinlik, mas'uliyat va umumiy manfaat har ikkala normativ sohani bog'lovchi mezonlar sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmadi.

Shunday qilib, O'rta asrlardan Yangi davrga axloq va huquq munosabatida yuz bergan tarixiy o'zgarishni ularning oddiy ajralishi tarzida emas, balki **o'zaro** bog'liq bo'lgan me'yoriy sohalarining vazifalari, asoslanish usullari va ta'sir mexanizmlari qayta shakllangan jarayon sifatida tushuntirish to'g'riroqdir. Bunday yondashuv axloq va huquq tarixini qarama-qarshi ikki tizimning shakllanishi emas, balki farqlanish bilan birga o'zaro aloqadorlik ham saqlanib qolgan murakkab falsafiy jarayon sifatida baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гусейнов А. А. Нравственная философия и этика // Гуманитарные ведомости ТГПУ им. Л. Н. Толстого. – 2019. – № 2 (30). – С. 8–39. – DOI: 10.22405/2304-4772-2019-1-2-8-39.
2. Керимов Г. М. Шариат: Закон жизни мусульман. Ответы Шариата на проблемы современности. – СПб.: Издательство «ДИЛЯ», 2009. – 512 с.
3. Montesquieu Ch. The Spirit of Laws / Translated by T. Nugent; revised by J. V. Prichard. – Electronic edition. – Lonang Institute, 2003–2005. – 477 p.
4. Çelikkol S. Farabî'de Ahlak ve Ahlak Eğitimi: Doktora Tezi. – Kayseri: Erciyes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2010. – 320 s.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub / qisqartirib nasriy tabdil qiluvchi I. Maxsumov; mas'ul muharrir S. G'aniyeva. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. – 320 b.
6. Гусейнов А. А., Иррилиц Г. Краткая история этики. – Москва: Мысль, 1987. – 589 с.
7. Локк Дж. Опыт о человеческом разумении / пер. с англ. А. Н. Савина // Локк Дж. Сочинения: в 3 т. Т. 1 / ред. И. С. Нарский. – Москва: Мысль, 1985. – 623 с.
8. Апресян Р. Г. Источники моральной императивности // Этическая мысль. – 2016. – Т. 16. – № 2. – С. 5–19. – DOI: 10.21146/2074-4870-2016-16-2-5-19.
9. Кант И. Основание метафизики нравов // Кант И. Лекции по этике / общ. ред., сост. и вступ. ст. А. А. Гусейнова. – Москва: Республика, 2000. – 431 с.
10. Hegel G. W. F. Philosophy of Right / Translated by S. W. Dyde. – Kitchener: Batoche Books, 2001.
11. Mill J. S. Utilitarianism. – The Floating Press, 2009. – 120 p.